

---

## MUROJAAT IJOBIY HAL ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Rishton tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri S.Dodoboiev, Rishton tumani hokimi o'rinbosari N.Oripov, tuman «Xalqparvar» komissiyasi raisi, Xalq deputatlari tuman kengashi deputati B.Ermatovlar Dasht Tegirmon MFY raisi A.Mo'minov ishtirokida Dasht Tegirmon MFY Mustaqillik ko'chasida yashovchi fuqarolar Qozoqboeva Sohiba va Omonova Ra'nolarning 17 may kuni tuman Xalq qabulxonasiga va tumandagi «Xalqparvar» komissiyasiga qilgan murojaati bo'yicha muallifning yashash xonadoniga borgan xolda 22.06.2022 kuni o'rganish o'tkazildi.O'rganish davomida fuqaro R.Omonovaning 2008 yilda tug'ilgan farzandi Jo'raev Diyorbek Normamat o'g'li bolalikdan nogiron ekanligi suyak yemirilish kasalligi bilan og'rishi farzandini 2 marotaba operatsiya qilinganligi asosiy operatsiya uchun mablag' so'raganligi aniqlandi. Muallifning turmush o'rtog'i bugungi kunda ishlamayotganligini, oilaviy sharoitini hisobga olib tuman «Xalqparvar» komissiyasi tomonidan mablag' ajratilishi masalasida navbatdagi Xalq deputatlari tuman kengashiga muhokamaga qo'yilishi belgilab olindi.Shuningdek, fuqaro S.Yusupovaning turmush o'rtog'i vafot etganligi, 2 nafar farzandi borligi, shundan bir nafari voyaga yetmaganligi, "Ayollar daftari"ga ro'yxatiga olinganligi hamda farzandini uylanishi uchun xonadonidagi bo'sh turgan joyga uy qurishga yordam so'rab murojaat qilganligi aniqlandi. Fuqaroning uy qurishi uchun ishchi guruh tomonidan uyning poydevor qismini ko'tarish uchun ustalar ajratilishi (fuqaro poydevor ko'tarish uchun shag'ol va sement olib qo'yganligi sababli) ga kelishib olindi. Keyinchalik poydevor qismi bitkazilgandan so'ng tuman hokimi o'rinbosari tomonidan uyini bitkazish uchun xom g'isht va ustalar bilan ta'minlanishi belgilanib, yuqoridagi murojaatlar ijobiy hal qilindi.

2022-06-23 11:57:00